

Yangi O'zbekistonda Barqaror Iqtisodiy Taraqqiyot

Yo'ldoshev Husniddin G'ayratbek o'g'li¹

Anatatsiya: Hozirgi vaqtda milliy iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan eng muhim tadbirlardan biri aholining bandlik darajasini oshirishdir. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017 yil 6 maydagi "Aholi bandligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshirishda mahalliy ijro hokimiyati va iqtisodiy komplekslarning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy ma'suliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori buning yorqin misoli bo'ladi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy taraqqiyot, ishchi kuchi, Iqtisodiyot.

Kirish. Iqtisodiy o'sish sur'ati juda ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ular ichida ishsizlik darajasi eng muhimlaridan biri hisoblanadi. Chunki ishsizlik darajasining belgilangan me'yorlardan oshib ketishi ham, kamayib ketishi ham iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli rivojlangan mamlakatlarda ishsizlikning tabiiy darajasini saqlab turishga katta e'tibor qaratiladi. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ishsizlik va ish bilan bandlikning holatini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Ishsizlikning iqtisodiy o'sishga ta'sirini bir qator iqtisodchi olimlar o'zlarining ilmiy izlanishlarida tadqiq qilishgan.

Klassik – iqtisodchi olimlar J.S. Mill, U. Petti, A. Smit, D. Rikardo, o'z tadqiqotlarida ish bilan bandlikni mehnat resurslariga bo'lgan talabning samaradorligi sifatida sifatida belgilagan. Y. Shumpeter, P.T. Beard, S. Bettaya, M. Ebisui o'z tadqiqot natijalarida ishbilan bandlik hamda iqtisodiy o'sish o'rtasidagi aloqalarning mohiyatini aks ettirgan. Germaniyalik iqtisodchi olim Linjens o'zining shakllantirgan nazariy modelida iqtisodiy o'sish va ishsizlik darajasini tadqiq qilgan. Unga ko'ra iqtisodiy o'sish va ishsizlik o'rtasida ijobiy yoki salbiy bog'liqlik bo'ladi, bu esa yuqori tajribali va past tajribali ishchilarning bir-birini o'rnini almashishidagi elastiklik darajasiga bog'liq. Gervarts va Neybur o'zlarining tadqiqotlari natijasida yuqori ishsizlik darajasi va iqtisodiy o'sish orasida ijobiy bog'liqlik mavjud degan hulosaga kelishgan. Sababi yuqori ishsizlik darajasi ishchilarning yanada ko'proq ishlashga va o'zlarining samaradorligini oshirishlariga undaydi, chunki ishsizlikning yuqori darajasida mavjud ish o'rinlariga ko'plab talabgorlar mavjud bo'ladi bu esa ishchilar o'rtasida raqobatni vujudga keltiradi.

Tahlil Va Natijalar. Har bir mamlakatda aholi bandligini ta'minlash maqsadida turli islohotlarni amalga oshiradi yangi ish o'rinlarini yaratish, kadrlarni qayta tayyorlash, kasbga doir mahoratlarni oshirish va hokazo. Lekin yuqorida sanab o'tilgan islohotlar har doim ham yuqori samara beravermaydi, buning sababi esa aholi sonining o'sishi, hamda pensiyaga chiqayotganlar va mehnatga layoqatli yoshga yetayotganlarning samarali o'rin almashishini ta'minlaydigan tizimning shakllantrishning murakkabligidadir.

O'zbekistonda 2020 yil yanvar holatiga ko'ra jami aholi soni 32mln. kishi bo'lib, shundan aholining 26 foizini 15 yoshgacha bo'lgan, 69 foizini 15-64 yoshdagi va 5 foizini 64 yoshdan yuqori bo'lgan aholi tashkil etgan. Bundan ko'rinadiki mamlakatda 21mln.dan ortiq mehnatga layoqatli yoshdagi aholi mavjud (iqtisodiy faol va nafaol aholi hisobga olinganda) bu esa iqtisodiyotda mehnat resurslari mamlakatda yetarli darajada ekanligini bildiradi. Mehnatga layoqatli aholi sonining ortishi iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda, yangi ish o'rinlarini yaratish, ishsizlik kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Ishchi kuchi samaradorligini oshirish hozirgi vaqtda hukumat oldida turgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Sababi ishchi kuchi samaradorligini oshirish 26% 69% 5% O'zbekiston aholisining aholisining yosh bo'yicha taqsimlanishi 2020yil (%) 15 yoshgacha 15-64 yosh oralig'ida 65 yoshdan yuqori 144 orqaligina ishsizlikning iqtisodiyotga salbiy ta'sirini kamaytirish mumkin. Samarali ishchi kuchi tarkibini shakllantrish uchun hodimlar malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash jarayoniga jalb etish zarur. Shuningdek ishchi kuchining eng muhim motivatorlaridan biri bo'lgan ish haqi masalasi ham bu yerda muhim rol o'ynaydi. Buning uchun avvalambor, hodimlar oylik maoshini iste'mol savatchasi talabiga mos tarzda shakllantrish, yoki milliy valyuta so'mning to'lov qobiliyatini oshirish orqali real ish haqi darajasini bozor baholariga moslashtirish kerak.

Iqtisodiyotda yalpi talab omillari bilan birgalikda yalpi taklif omillariga ham alohida e'tibor berish kerak. Ular iqtisodiyotning samarali ishlashi va raqobatbardoshligida muhim manbaalar hisoblanadi. Uning tarkibida mehnat omili iqtisodiyotni texnika taraqqiyoti bilan ta'minlaydi va uning aqliy qobiliyati mahsuli – ixtirolar, yangi g'oyalar bo'lib, ularni ishlab chiqarishga olib kirilishi yangi texnika texnologiyani joriy etish imkonini yaratadi. Shuningdek bir qator tadqiqotlarning ko'rsatishicha, inson omilini rivojlantirish uchun ta'lim darajasiga e'tibor qaratish lozim, chunki ta'lim darajasi va iqtisodiy iqtisodiy o'sish sifati ko'rsatkichlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud.

¹ 2-bosqich 201-guruh talabasi, Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'lim yo'nalishi Ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti, Andijon davlat universiteti

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan ishchi hodimlarning mehnat unumdorligi darajasini tekshiradigan bo'lsak Transport va aloqa tizimida nisbiy mehnat unumdorligi yuqoriligini ko'rish mumkin, 2008 yilda bu tarmoqda nisbiy mehnat unumdorligi 2,5 bo'lgan bo'lsa 2016 yilga kelib bu ko'rsatkich 2,1 ni tashkil etgan. Bu esa tarmoqda so'nggi yillarda hodimlar malakasini oshirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlashda muammolar mavjudligini anglatadi. Sanoat tarmog'ida mavjud ishchi xodimlarning nisbiy mehnat unumdorligi ko'rsatkichi esa tadqiq etilgan davrlarda barqarorlikni ko'rsatgan. Tarmoqda bu ko'rsatkich yildanyilga o'sib bormoqda. Shuningdek 2008-2016 yillarda iqtisodiyotimizning asosiy tarmog'i bo'lgan sanoatda mehnat unumdorligi o'rtacha 1,82, qishloq xo'jaligida 0,58, qurilishda 0,6, savdoda 0,71 kabi ko'rsatkichlarni tashkil etgan. Shuni takidlab o'tish lozimki malakatimizda olib borilayotgan aholining savdoxonligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy chora tadbirlar tufayli iqtisodiyotda mavjud tarmoqlarning mehnat unumdorligi sezilarli darajada ordi. Bu esa kelajakda ishlab chiqarishda samaradorlik bo'yicha kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolarni va xarajatlarning haddan ortiq ortib ketishini oldini oladi.

Respublikamiz hudularida ish bilan bandlarning jami iqtisodiyotda bandlardagi ulushini o'rganadigan bo'lsak bu borada Samarqand shaxri va Farg'ona viloyatlarining ulushi katta ekanini ko'rishimiz mumkin, 2020 yilda bu viloyatlardagi ish bandlar mos ravishda jami ish bilan bandlarning 11,2 va 11,1 foizini tashkil etgan. Itisodiyotda jami bandlarning hududlar bo'yicha eng kam ulushi esa Jizzax va Sirdaryo viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Mamlakatimizda YAIM hajmi so'nggi yillarda barqaror ravishda ko'paymoqda, YAIM miqdori 2021 yilda 2017 yilga nisbatan 2 146 barobarga oshgan. Mamlakatda inflatsiya darajasi o'zgarishi esa 2017-2021 yillarda mos ravishda 4,1 foizdan 1,3 foizga kamaygan. Jadval ma'lumotlaridan foydalanib tuzilgan regressiya tenglamasi ham ishsizlik darajasining iqtisodiy o'sishga salbiy ta'siri mavjudligini ko'rsatadi.

$$Y=21,8+X1*0,1-X2*2,3-X3*0,31 \quad (1)$$

Yuqoridagi formulada regressiya koeffitsienti 21,8 ga qolgan parametrlar esa mos ravishda 0,1ga, -2,3 va -0,31 ga teng ekanligini ko'rish mumkin teng ekanligini ko'rish mumkin. Bu koeffitsientlar shuni anglatadiki aholi sonining bir foizga ortishi 0,1 foiz iqtisodiy o'sishga, ishsizlikning bir foizga ortishi -2,3 foiz, inflatsiya darjasining bir foizga ortishi esa -0,31 foiz iqtisodiyotni pasayishiga olib keladi. Yuqoridagi regressiya tenglamasi koeffitsientlari va haqiqiy ko'rsatkichlar asosida tuzigan grafiklar deyarli bir-biri bilan bir xil ko'rsatkich qayd etgan bu esa hisob kitoblarni to'g'ri amalga oshirilganini ko'rsatadi

Hulosa Va Takliflar. Ishchi kuchidan samarali foydalanish natijasida barqaror iqtisodiy o'sish davomiyligini va sifatini oshirish uchun quyidagilarni chora-tadbirlarni taklif etamiz:

aholi real daromadlarini oshirish orqali ularning, to'lovga layoqatlilik darajasini o'stirish va shu bilan mehnat unumdorligini oshirishga erishish;

hududlarning geografik joylashuvidan kelib chiqqan holda ish o'rinlarini tashkil qilish orqali bo'sh turgan ishchi kuchini mehnatga jalb etish;

ish jarayoniga innovatsion yondashib jamoa mehnat faoliyatiga yangiliklarni joriy etuvchi ishchi hodimlarni ichki rag'batlantirish tizimini shakllantirish;

jahon tajribasiga binoan korxonalar daromadi oshib borishi bilan hodimlarga to'lanadigan ish haqi miqdorini oshirib borish tizimini hayotga tatbiq etish orqali hodimlarni ish jarayoniga mas'uliyatini oshirish;

kasaba uyushmalari faoliyatini jahon andozalariga mos tarzda tashkil etish va ularning hodimlar huquqlarini himoyalash va rag'batlantirish tizimining samaradorligini oshirish. Yuqorida keltirib o'tilgan takliflarni hayotga tatbiq etilishi natijasida ish beruvchilar va hodimlar o'rtasida o'zaro ma'suliyat darajasini oshirish va shu bilan bir qatorda ishchi hodimlarning ish jarayoniga munosabatini ijobiy tomonga o'zgartishiga ularning o'z faoliyatiga yuqori darajadagi samadorlik bilan yondoshuviga erishish mumkin.

Hozirgi vaqtda ishsizlikning iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sirini faqatgina ish bilan band aholining mehnat unumdorligini oshirish orqali kamaytrish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M. Mirziyoyevning 2017 yil 6 maydagi "Aholi bandligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshirishda mahalliy ijro hokimiyati va iqtisodiy komplekslarning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy ma'suliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. Beard, T. Capital investment and employment in the information sector [Text] / T. Beard, G. Ford, H. Kim // Telecommunications Policy. – 2014. – № 38. – P. 371-382.
3. Beatty, C. A Theory of Employment, Unemployment and Sickness [Text] / C. Beatty, S. Fothergilla, R. Macmillan // Regional Studies. – 2000. – № 34, (7). – P. 34-52.
4. Ebisui, M. Non-standard workers: good practices of social dialogue and collective bargaining [Text] / M. Ebisui. – ILO, Industrial and Employment Relations Department, 2012. – 31 p.
5. Lings, J. (2003); "The impact of a unionised labour market in a Schumpeterian growth model"; Labour Economics; Vol. 10,

6. Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotining yangi bosqichida. T.: O'zbekiston
7. У.А. Мадрахимов, и.ф.н., доц. ПМТИ ИҚТИСОДИЙ ЎСИШГА ЯЛПИ ТАЛАБ ВА УНИНГ ТАРКИБИ ТАЪСИРИ. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали.
8. Муродов Ш. Ф. Усиление влияния инвестиций на инновационное развитие Узбекистана //Молодой ученый. – 2020. – №. 16. – С. 268-270.